

## O'ZBEKISTONNING DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING OLDINI OLİSH VA UNGA QARSHI KURASH BORASIDA OLİB BORAYOTGAN SIYOSATINING MOHIYATI

*Davlatmurodov Azizbek Masharif o'g'li*

*Urganch davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich*

*Milliy g'oya ma'naviyat asoslari huquq ta'limi yo'nalishi talabasi.*

*E-mail: [azizbekdavletov55@gmail.com](mailto:azizbekdavletov55@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqlolada yangilanayotgan O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosati va uning mohiyati, bugungi kunda jadallahayotgan global dunyoning yoshlar ongiga ta'siri haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Islom Karimov, ma'naviyat, shok terapiya, jonkuyarik, terrorizm, diniy siyosat, loqaydlik, yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, siyosat, Sh.Mirziyoyev.

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha qayerda xushyorlik va jonkuyarik yuksak aql-idrok va tafakkur hukmon bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

(Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asari" dan)

Bugungi jadallahayotgan yurtimizda terrorizm, ekstremizm, diniy tashkilotlar kabi so'zlar tez-tez qulog'imizga chalinadi. Xo'sh o'zimiz shu so'zlarning lug'aviy ma'nosini bilamizmi?

Terrorizm tushunchasi( lotincha qo'rquv, daxshat ) - yuksak ma'naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo'lida kuch ishlatis, odamlarni garovga olish, o'ldirish, ijtimoiy obyektlarni portlatish, xalqni qo'rquv va vahimaga solishga asoslangan zo'ravonlik ma'nosini anglatuvchi atama. U siyosiy, iqtisodiy, diniy, g'oyaviy, ilmiy, milliy, guruhiy va individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ekstremizm esa (lotincha extremus- ashaddiy) - siyosatda ashaddiy qarash va chorralarga moyillik. Ekstremizmni vujudga keltiradigan omillar ko'p va xilma-xil. Ular orasida bir tuzumdan boshqa tuzumga o'tish davrida yuz beradigan ijtimoiy tuzilmalarning buzilishi, aholi katta guruhlarining qashshoqlashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy tanglik kabi omillarni ko'rsatish mumkin. Bu omillar albatta aholi turmush sharoitining yomonlashuviga olib keladi. Aslini olganda bu ikkala so'z ham asli tuban ma'noda qo'llanilinadi. Mazkur harakatlar nafaqat dunyoviy qonun-qoidalar, balki islam dini asoslariga ham ziddir. Shunday ekan, bunday oqimlarga qarshi murosasiz kurash, terrorchilik harakatlarini amalga oshirayotgan mutaassib kuchlarning Islom diniga mutlaqo yet, begona ekanini har tomonlama asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash bilan bog'liq davlat siyosatini davr talabi darajasida moslashtirib , izchillik bilan bunday jinoyatlarning oldini olish choralarini ko'rmoqda. O'zbekistonning jinoyatchilik

jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatini bir necha bosqichga bo'lish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini erkinlashtirish.
2. Hozirgi davr talabi asosida jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bog'liq soha qonunlariga insonparvarlik g'oyalalarini singdirish.
3. ijtimoiyadolatni, qonun ustivorligini ta'minlash.
4. jinoyat ishlarini ko'rishga ixtisoslashgan sud organlari faoliyatida qonuniylikni izchil qaror toptirish va oshkoraklik oshkoraklikni ta'minlash.
5. Jinoyatlarning oldini olishda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki jamoatchilikning, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining kuchiga tayanish. Ayni vaqtda jamoatchilikning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq barcha choralarini ko'rish
6. Ichki ishlar, Milliy xavfsizlik xizmati, tergov, prokuratura organlari, sudlar va boshqa organlar faoliyatining bir-biridan tashkiliy jihatdan farq qilishini hisobga olgan holda, mazkur sohalarning bir birining mustaqil faoliyat olib borishini ta'minlash, har bir organning jinoyatchilikka qarshi kurash borasida ma'suliyatini oshirish.
7. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish mehanizmini ishlab chiqish va qonuniy asosda mustahkamlash uchun prokuratura organining bu boradagi o'rnini prokuratura to'g'risida gi qonunda aks ettirish
8. Jinoyatchilikka qarshi kurashda fan yutuqlari yutuqlaridan, ilmiy texnika vositalaridan yanada samarali foydalanish yo'l - yo'riqlarini va usullarini ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish
9. Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar xodimining kasb-mahoratini oshirish.

Yuqoridaagi large asoslanib aytish mumkinki, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi siyosati nihoyatda ko'p qirrali bo'lib, uni amalga oshirish murakkab amaliy jarayonni o'z ichiga oladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, muhokiflarning eng yovuz quroli milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan eng yomoni, ertaga o'rnimizni egallashi lozim bo'lgan yoki avlodning qalbi va tafakkurini zaharlaydigan buzg'unchi mafkuradir. G'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni milliy g'oyada aks etadigan millatning haqiqiy orzusi-ozod va obod Vatanda erkin va to'q yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatini qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Turli g'oyaviy xurujlar avj olayotgan, ular bizning eng muqaddas g'oyalarimizga va maqsadlarimizga tahdid solayotgan bir paytda fojealar sodir bo'lmasdan ilgariroq uning oldini olishning eng to'g'ri va yagona yo'lli begona va sohta g'oyalarga qarshi g'oyaviy immunitetni kuchaytirish lozim. Bu haqida birinchi prezidentimizning asarida ham shunday ma'lumot keltirilgan.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim.

"Ommaviy madaniyat" degan niqob ostida ahloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individuallizm, egosentrizm g'oyalalarini tarqatish, kerak bo'lsa shuning hisobidan

boylik orttirish boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlarida bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'yumaydi. Agarda biz mustaqillikka eriahganimizdan keyin bosqichma -bosqich rivojlanish yo'lini emas, balki "shok terepiyasi"ni tanlaganimda eng qiyin vaziyatda aksariyat aholimiz qanday ahvolga tushgan bo'lar edi? Hech shubhasiz stixiyali tarzda yuz bergen bu holatda odamlar holati keskin yomonlashib, hayot tarzi ahloqiy qadriyati , milliy va ma'naviy qiyofasi butunlay izdan chiqqan bo'lar edi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mutassiblik ko'rinishdagi turli siyosiy oqimlar: ekstremizm, terrorizm kabilar jamiyat xavfsizligiga , milliy ma'naviyatimizga real tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda shunday ekan, yurtimiz tinchligi va osoyiahtaligi, ravnaqi va farovonligi doimiy va qat'iy harakatlarni talab etadi. Zero birinchi prezidentimiz aytganidek birinchi galda terorchilarni tayyorlaydigan zaminga, g'oyaga, mafkuraga e'tibor berish , shularga qarshi kurashish kerak. Yoshlar ongiga va hayotiga qarshi biz qurol bilan emas balki g'oya bilan kurashishimiz kerak. Prezident Sh. Mirziyoyev takidlaganidek, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, "Bizga tinchlik va xotirjamlik kerak " tamoyilini amalga oshirish barchamiz uchun dolzarb vazifadir. Davlatimiz rahbarining MDH Minsk sammitidagi nutqida ushbu hayotbaxsh g'oya o'z ifodasini topgan. Zero, tinchlik va osoyishtalik , haqiqatan ham, beba ho ne'matdir, iqtisodiyotimizni yanada taraqqiy ettirish, xalqimizning turmush darajasi va sifatini yuksaltirish, shahar va qishloqlarimiz , butun mamlakatimizning qiyofasini o'zgartirish hamda obodonlashtirish kafolatidir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch Islom Karimov. Toshkent:Ma'naviyat " 2016
2. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash o'quv-uslubiy majmua. Davletov J. B
3. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. Sh. Mirziyoyev Toshkent:"O'zbekiston " NMIU2017
4. Globallashuv va millat Otamurotov S. Yangi asr avlodi 2008
5. Globallashuv asoslari monografiya. Jumaniyozov X , Sobirova U, Nigmanova U. B.